



EKOLOGIK INGIROZLI HUDUDLARNING SALBIY OQIBATLARI,
MUAMMO VA YECHIMLARI.

Choriyeva Jasmina

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada Orol fojiasining kelib chiqish sabablari, ekologik, iqtisodiy sohalarga qilgan jiddiy ta'sirini chuqur tahlil qiladi. Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan muammolarining salbiy oqibatlarini o'rganadi. Shuningdek Orol qurishi oqibatlarini bartaraf etish va mintaqada iqtisodiy barqarorlikni tiklash bo'yicha amalga oshirilayotgan mahalliy va xalqaro tadbirlarni o'rganadi. Jumladan suv resurslarni samarali boshqarish, atrof-muhitni tiklash dasturi va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish borasida xulosa va takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: Orol bo'yi mintaqasi, ekologik ingiroz, suv resurslari, barqaror rivojlanish, iqlim

Kirish

Bugungi kunda dunyoda ekologik ingirozli hududlar soni yildan yilga ortib borayabdi. Hozirgi kundagi eng dolzarb muammo Orol muammosi 1960-yildan hozirgacha davom etib kelayabdi. 2000-yillarga kelib esa 90% dan ziyod hududi qurigan. Orol fojiasi - bu nafaqat Markaziy Osiyo balki butun jahon bo'yicha muammolardan biri hisoblanadi. 1960-yillardan boshlab Amudaryo va Sirdaryo daryolarning suv oqimlarining ko'p qismi sug'orish maqsadlariga yo'naltirish natijasida qurib qolgan. Bu ofat nafaqat ekotizimning vayron qildi balki mintaqa aholisining sog'lig'i, turmush darajasi va iqtisodiy faoliyatga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu maqolada Orol fojiasining sabablari va oqibatlari, shuningdek, uning barqaror rivojlanish yo'nalishlariga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism

Orol fojiasining asosiy sabablari Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida daryo suvlaridan, haddan tashqari foydalanishdir. Paxta va g'alla ekinlari maydonlarini sug'orish uchun Amudaryo va Sirdaryo suvlarining ko'p qismi yo'naltirildi. Natijada Orol dengizi suv sathi kamaydi. Ekologik oqibatlar juda keng qamrovli bo'lib, ular orasida dengiz quriganidan keyin ochilib qolgan tuproqlardan ko'tarilgan shuvoq va chang bo'ronlari, iqlim o'zgarishi, tuproqning sho'rlanishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabilar kiradi. Nafas olish yo'llari kasalliklari, ko'z va teri kasalliklarikabi sog'liq muammolari Orol atrofida hududlarda keng tarqalgan. Iqtisodiy jihatdan, Orol fojiasi baliqchilik sanoatining butunlay inqirozga yuz tutishiga olib keldi. Aholining katta qismi sog'liq muammolari va ishsizligi tufayli boshqa hududlarga ko'chib ketishga majbur bo'lgan. So'nggi yillarda mintaqada barqarorlikni tiklashga qaratilgan bir qator tashabbuslar amalga oshirilmogda. Bular orasida suv resurslarini samarali boshqarish, ekoturizmni rivojlantirish va yangi texnologiyalarni joriy etish kabi choralar muhim o'rin tutadi. Orol bo'yi va Qoraqalpog'istonda ekoturizm loyihalari orqali mintaqaning ekologik muammolari haqida xabar beradi, shu bilan birga mahalliy aholi uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish imkoni borligi haqida ogohlantiradi. Virtual reallik va



kengaytirilgan reallik orqali Orol dengizning tarixiy holati va hozirgi vaziyati haqida ma'lumot beradi, jahon jamoatchilik e'tiborini jalb qilishda muhim vositadir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Orol fojiasi insoniyatning tabiiy resurslarni noto'g'ri boshqarishining og'ir oqibatlariga olib keladi. Bu muammoni yechish bo'yicha bir nechta tadbirlar tashkil etilgan. Atrof-muhitni tiklash, suv resurslarini samarali boshqarish va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish orqali Orol bo'yidagi mintaqalarda barqaror kelajak qurish mumkin. Shuningdek, bu ekologik falokat butun insoniyat uchun tabiat bilan muvozanat munosabatda bulishning qanchalik muhimligi haqida chuqur saboq bulib, kelajakda boshqa hududlarda shu kabi muammolarning oldini olish va barqarorrivojlanish tamoyillariga qat'iy rioya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTAR:

- 1.Markaziy Osiyo ekotizmlari jurnali.
- 2.BMTning Orolbo'yi hisobotlari(2018-2023)
- 3.Sog'liqni saqlash ilmiy-amaliy jurnali.
- 4.Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish tashkiloti ma'lumotnomasi.
- 5."Turizm va madaniy meros" jurnali.
- 6.Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2022-yil hisobotlari.
- 7.Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi faoliyati va loyihalari buyicha hisobotlar (2020-2023).